

KAMQONLIK SABABLARI VA UNI TABIIY YO'L BILAN DAVOLASH CHORALARI

Ernazarova Mavluda Shernazarovna

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmakognosiya va
farmatsevtik texnologiyalar kafedراسي asistentsi*

Baxromova Barno Zokirovna

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmakognosiya va
farmatsevtik texnologiyalar kafedراسي asistentsi*

Mo'minboyev Diyorbek Jasurbek o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: diyorbekmominboyev5@gmail.com

Tel: +998883551585

Annotatsiya: Kamqonlik har o'nta odamning to'qqistasida uchraydigan juda keng tarqalgan kassaliklardan biri hisoblanadi va u tibbiyotda anemiya deb ataladi. Anemiya yoki kamqonlik – qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi. Bu kasallikka aksariyat hollarda ayollar va bolalar chalinadi. Chunki ularda temir moddasiga bo'lgan ehtiyoj erkaklarnikiga qaraganda 3,5 barobar yuqori hisoblanadi. Biz bu kasallikka chalinmasligimiz uchun to'g'ri ovqatlanish ratsioniga amal qilish, oilaviy poliklinikalarga borib qonimizni muntazam tekshirtirib turishimiz, davolashda esa qaysi turdagi anemiya ekanligini etiborga olishimiz lozim.

Tayanch iboralar: Anemiya, regeneratsiya, anizotsit, poykilotsit, gipoxrom, gipoksiya, postgemorragik anemiya, gemolitik, defitsit, B12 va.h.k

Аннотация: Анемия является одним из наиболее распространенных заболеваний, которым страдают девять из десяти человек и которое в медицине называется анемией. Малоокровие или анемия – уменьшение количества эритроцитов и количества гемоглобина в крови. Это заболевание в основном поражает женщин и детей. Потому что их потребность в железе в 3,5 раза выше, чем у мужчин. Чтобы не заболеть этим заболеванием, следует соблюдать правильную диету, регулярно ходить в семейные поликлиники для сдачи анализов крови, а при лечении учитывать тип анемии.

Ключевые слова: Анемия, регенерация, анизоцитарная, пойкилоцитарная, гипохромная, гипоксия, постгеморрагическая анемия, гемолитическая, дефицит, B12 и др.

Annotation: Anemia is one of the most common diseases that affects nine out of ten people and is called anemia in medicine. Anemia or anemia - a decrease in the number of red blood cells and the amount of hemoglobin in the blood. This disease

mainly affects women and children. Because their need for iron is 3.5 times higher than that of men. In order not to get sick with this disease, you should follow the right diet, regularly go to family clinics for blood tests, and take into account the type of anemia in treatment.

Key words: Anemia, regeneration, anisocytic, poikilocytic, hypochromic, hypoxia, posthemorrhagic anemia, hemolytic, deficiency, B12, etc.

Ishning vazifasi: Kamqonlikni oldini olish, davolash usullarini to'g'ri tatbiq qilish va samarali dori vositalar bilan birgalikda shifobaxsh o'simliklarni ko'rib chiqish.



Material va uslublar:

Anemiyani dastlabki o'rganishlar 450 yil ilgari boshlangan. Nemis vrachi Loxannes Lange 1554 yil «kasallik xolatini» («de morbo virgineo») nomi bilan yozgan. Bemorda terini oqarishi, yurak urushi, hansirash, go'shtli ovqatga nisbatan hohishni yo'qolishi kabi belgilar paydo bo'lgan. Anemiya deb, qonning hajm birligida eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining kamayishiga, xamda ularning tarkibi xamda morfologiyasida sifat

o'zgarishlarini sodir bo'lishiga aytiladi. Sifat o'zgarishlari, periferik qonda patologik shaklli eritrotsitlarni paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

ANEMIYALARNI TASNIFLASH.

Qon sistemasining patologik xolatlarini u yoki bu alomatiga asoslanib anemik xolatlarni xar xil tasniflash mumkin.

Anemiyalarni etiologiyasi va patogenezi bo'yicha quyidagicha farqlanadi:

1. Qon yo'qotgandan so'ng paydo bo'ladigan anemiyalar-postgemorragik anemiyalar.
2. Eritrotsitlarni shiddatli parchalanishi (gemolizi) oqibatida sodir bo'ladigan (gemolitik) anemiyalar.
3. Eritropoezni buzilishi oqibatida paydo bo'ladigan (defitsit) anemiyalar.

POSTGEMORRAGIK ANEMIYALAR


Postgemorragik anemiyalar, o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin. O'tkir postgemorragik anemiyalar bir yo'la, tez va ko'p miqdor qon yo'qotilishi oqibatida paydo bo'ladi. Ularni asosiy sabablari, yirik tomirlarni jaroxatlanishi va ichki a'zolari shikastlanishi xisoblanadi.

Yirik qon tomirlarni jaroxatlanishi hisobiga vujudga kelishi.(1-rasm)

Postgemorragik anemiyalar yangi tug'ilgan chaqoloqlarda kindik kesilgandan keyin qon to'xtamasligi oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin.

1-rasm

GEMOLITIK ANEMIYALAR



Sog'lom organizmda eritropoez (eritrotsitlarni yaratilishi, 2-rasm) bilan eritrodieroz (eritrotsitlarni parchalanishi) o'rtasida dinamik muvozanatning mavjudligi, periferik qonda eritrotsitlarning mikdorini doimiyligini ta'minlaydi. Eritrotsitlarning parchalanishi (gemolizi) ularni hosil bo'lishi va qonga tushishdan ortiqroq hollarda anemiyalar paydo buladi.


2-rasm

Gemolitik anemiyalar irsiy va orttirilgan bo'ladi.

DEFITSIT ANEMIYALAR

Bu guruh anemiyalarga eritropoezni me'yorida bo'lishi uchun zarur omillar: temir, vitamin B12 va folat kislota hamda oqsil kabilarning yetishmasligi oqibatida paydo bo'ladigan anemiyalar kiradi.

Temir yetishmasligidan paydo bo'luvchi anemiyalar.



3-rasm

Bu anemiyalar bolalar va katta yoshli insonlar orasida juda keng tarqalgan patologiyadir. Bolalar orasida bu 10% dan to 70% gacha uchraydi, ayniqsa 2 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar orasida ko'p uchraydi. Temir organizmda har xil oqsillar tarkibiga, hususan gemoglobin tarkibiga kiradi. Gemoglobinning temir tutuvchi qismi gemdir(3-rasm). Bu moda, temirni porfirin halqasi bilan hosil qilgan mustahkam birikmasidir, u faqat gemoglobinning tarkibidagina bo'lmay, balki mioglobin, sitoxrom, katalaza kabilarda xam bo'ladi. Temir

gem bo'lmagan shaklda fermentlar va oqsillar (ferritin va

transferin) tarkibiga kiradi.

Homila organizmida temirni to'planishi, homiladorlikning boshlang'ich davrlaridanoq boshlanadi va ona organizmidan platsenta orkali ro'yobga chiqadi. Homilada temir to'planishining maksimumi, ona qornidagi taraqqiyotining oxirgi davriga to'g'ri keladi. Tug'ilgandan so'ng, bola temirni ovqat bilan qabul qiladi va uning so'rilishi asosan o'n ikki barmoqli ichakda va ingichka ichakning yuqori qismida sodir bo'lali. Ovqat tarkibidagi hamma temirning 10% ni o'zlashtiriladi holos. Biroq, go'shtli mahsulotlar tarkibidagi gemning temiri, o'simliklar tarkibidagi Fe ga qaraganda osonroq so'riladi

Temir organizmdan najas, siydik, ter va tabiiy qon yo'qotish jarayonida ajratiladi.

Vitamin B12 va folat kislota defitsitli anemiyalar

Bu anemiyalar eritropoezni me'yordaligini (normal) ta'minlovchi zarur omillarning etishmovchiligi oqibatida paydo bo'ladi.

Vitamin B12 (Kaslning tashqi omili) ilk bor 1948 yili jigardan ajratib olingan. Ovqat bilan (go'sht, tuxum, jigar va boshkalar) tushuvchi vitamin B12 oshqozon shirasi tarkibidagi gastro-mukoproteinlar (Kaslning ichki omili) birikib, proteinsiankobalamin kompleksini hosil qiladi. Bunday holatda vitamin B12 ichakning yuqori qismidagi ta'sirchan mikroblar muhofaza qilinadi va ichak devoridan osongina so'riladi. Vitamin B12 ning asosiy so'riladigan joyi yonbosh ichakning pastki qismlariga to'g'ri keladi, hamda u jigarda depolanadi. Jigarda vitamin B12 folat kislotaga ta'sir qilib, uni tetragidrofolat kislotaga aylantiradi, bu modda esa nuklein kislotalar sintezida ishtirok etadi va shu tufayli hujayralarning bo'linishi jarayoni sodir bo'ladi.



Vitamin B12 va folat kislota yetishmasligi nuklein kislotalarning sintezini buzilishiga olib keladi, bu hujayralar bo'lishishining buzilishi va hujayralar o'lchamlarining kattalashuvi bilan namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, tez bo'linayotgan qon hujayralari va oshqozon-ichak yo'lining hujayralari zararlanadi. Bu hujayralarda aminokislotalarni almashuv sur'ati nihoyatda tezdir. Qon yaratuvchi to'qmalarda mitotik jarayonning buzilishi oqibatida qon hujayralarining yiriklashuvi kuzatiladi. Oshqozon-ichak yo'lining

shikastlanishi ularning shilliq pardasining atrofik yallig'lanishi bilan namoyon bo'lali. Bunda glossit (tilning qip-qizil silliq holati, 4-rasm), -enterit, kolit kabilar paydo bo'ladi.

Uy sharoitida kamqonlikni davolash

Temir moddasiga boy bo'lgan ovqatlarni iste'mol qilish lozim (kuniga 15 mg) bular:

- dukkakkilar(loviya,no'xot,mosh)
- jo'xori
- go'sht va baliq mahsulotlari
- sabzavot (ayniqsa, qizil sabzi), mevalar va ko'katlar
- quruq mevalar: turshak, o'rik,yong'oq va mayiz.

Buyuk bobokolonimiz Abu Ali Ibn Sino ismaloqdan kamqonlikni davolashda foidalangan: 1 osh qoshiq ismaloq o'ti yoki bargining kukuni 200 gramm suvda 10 daqiqa qaynatilib, tindirib qo'yiladi va hosil b'lgan ekstrakt dokadan suzib, kuniga uch mahal ichiladi. Bundan tashqari xalq tabobatida: behining bargi va po'stlog'idan qilingan damlama, shuningdek, yalpiz bargidan tayyorlangan damlama ham kamqonlikda foydalanadi.

Xulosa: Anemiya kamqonlik bo'lib uni vaqtda davolamaslik juda og'ir kassaliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Xususan qonda eritratsitlarning kamayishi sababli kislarodning qondagi miqdoriga tasir qiladi va gipoksiya rivojlanadi. Periferiyadagi organlarning (qo'l barmoqlari, oyoq barmoqlar, uchlari) sovuqqotishi, jimirlashi va uyushib qolishlari ham kuzatiladi. Shuning uchun har birimiz salomatligimizga be e'tibor bo'lmasligimiz, ze'ro „Tan salomati – jon rohati“ ekanligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. H., Karimov H.Y., Irisqulov B.U. Patologik fiziologiya. - T.: Yangi asr avlodi, 2008. - 480 bet
2. Azimov R.Q. Patofiziologiya. – T., 2010. – 292 b.URL
4. Патологическая физиология: учебник: Ю.В. Быць, Г.М. Бутенко, А.И. Гоженко и др. / под ред. Н.Н. Зайко, Ю.В. Быця, И.В. Крышталя. К.: ВСИ "Медицина", 2015. - 744 с. + 4 с. цветн.
5. Robbins and Cotran. Pathologic Basis of Disease, - Ninth Edition. - Professional Edition. Textbook. Philadelphia.CurrMol Med., 2015. – 1392 bet
6. Norqulova, Z., Eshonqulova, K., Ernazarova, M., & XUSUSIYATLARI, S. P. S. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. V-1, I-2, ISSN, 2181-2020.
7. Ernazarova, M. S., & Qo'Yliyeva, M. U. (2022). ANJIR O'SIMLIGI MEVASINING YO'TALGA QARSHI SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 998-1001.

8.Sh, E. M., Abrayeva, M. A., & Toshev, B. (2022). Treatment of rheumatoid arthritis with herbal medicines. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 207-209.

9.Усманова, М., Эрнazarова, М., & Қўйлиева М, Х. Г. (2021). Organization of pharmacy activities, measures for storage of medicines. *Экономика и социум*, (11), 90.

10.Эрнazarова, М. Ш., & Бахромова, Б. З. (2022). Исследования свойств лекарственных растений содержащих алкалоид. *Science and Education*, 3(11), 106-116.

11.Вахромова, В. Z., & Ernazarova, M. S. (2022). Dorivor lavanda o'simligi haqida umumiy ma'lumot va uning tibbiyotda qo'llanilishi. *Science and Education*, 3(11), 88-95.

12.Нажмитдинов, Х. Б., Олимов, С. М., & Бахромова, Б. З. (2022). ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА ФРУКТА–ПЕРСИК. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 327-332.

13.Olimov, S. M., & Вахромова, В. Z. (2022). ZANJABIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. *Journal of new century innovations*, 14(1), 156-160.

14.Meliqulov, O. J., & Ernazarova, M. S. (2022). DORI VOSITALARINING BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 978-982.

15.Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Dori vositasiga shakl berish va dori vositadagi ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi haqida tushuncha. *Science and Education*, 3(11), 126-134.

16.Meliqulov, O. J., & Kodirov, N. D. (2022). Furan va uning tibbiyotda ishlatiladigan hosilalari. *Science and Education*, 3(11), 178-185.